

**KONFLIKTLARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA  
MEXANIZMI**

***Ibrohimov Og'abek Maxmarajab o'g'li***

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali*

*Ijtimoiy ish yo'nalishi 3- kurs talabasi*

***Sabirova Surayyo Farxod qizi***

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali*

*Ijtimoiy ish yo'nalishi 3- kurs talabasi*

***Ilmiy rahbar: Abbasova Maftuna Subxonovna***

*Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi P.H.D*

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada jamiyatimizda kuzatilayotgan konfliktli vaziyat, konfliktli vaziyatdan qanday chiqish, ularni o'rganishda konfliktologiyaning o'rni, hamda konfliktlarning rivojlanish bosqichlari va mexanizmi haqida fikr yuritilgan.

***Kalit so'zlar:*** konflikt, konfliktli vaziyat, konflikt rivojlanishi, lotent bosqich, tashqi harakat, kurash dinamikasi, konflikt eskalatsiyasi.

**Kirish**

Ilm sahroda-do'st  
hayot chorrahalarida- tayanch  
yolg'iz damlarda- yo'ldosh  
baxtiyor daqiqalarda – rahbar  
qayg'uli onlarda-madadkor  
odamlar orasida –zeb-u ziynat  
dushmanlarga qarshi kurashda- quroldir.

**Hadisdan**

Inson o'z hayotida bolalik davridanoq boshqa insonlar bilan turli ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Inson hayoti boshqalar bilan bo'ladigan turli

munosabatlarning uzluksizligidan iborat bo'lgan jarayondir. Ana shu munosabatlar esa har doim ham bir tekis, silliq va tinch davom etavermaydi. Hayotning bir tekis davom etishini turli nizo va ziddiyatlar buzib turadi. Biz ularni konfliktlar deb ataymiz. Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki har bir inson o'z hayoti davomida konfliktlar bilan to'qnash keladi. Konfliktlar tabiiy hodisa bo'lib, konflikt bilan to'g'ri munosabat o'rnatish inson tarbiyasi, uning shakllanishining zaruriy talablaridan biridir.

Bolalik davrida o'yinchoqlarni talashish, birovlariga hasad qilish yoki o'gil bolalarning janjal qilib urishganini ko'p kuzatgansiz. Mana shunday konfliktlar keyinchalik oilada, er-xotin, qaynona-kelin, aka-opalar, yaqinlar, do'stlar, ijtimoiy guruhlar, turli kompaniyalar o'rtasida, kasbiy faoliyatda, shuningdek pedagogik faoliyatda ham vujudga kelishi mumkin.

Xo'sh, aslida konflikt nima, uni yengib bo'ladimi, undan inson o'zini ehtiyot qilishi mumkinmi, konfliktsiz yashashning tartib va qoidalari mavjudmi, ular nimalardan iborat? Ushbu savollar hammani qiziqtirishi tabiiy, albatta. Mazkur maqolada o'sib kelayotgan yangi avlodni aynan konfliktlar bo'yicha zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirishga bag'ishlangan bo'lib, konflikt jarayonlarida o'zini idora qilish bo'yicha barcha zarur ilmiy-nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi.

### **Asosiy qism**

#### **Konfliktning rivojlanishi**

Latent bosqich. Konfliktdan oldin uning latent - yashirin bosqichi shart hisoblanib, unda tashqi harakatlarni istisno qilganda konflikt barcha elementlari mavjud bo'ladi.

O'z navbatida bu bosqich konflikt rivojlanishining bir qator izchil jarayonlarini yoki davr(etap)larini o'z ichiga oladi.

Birinchi davr - obyektiv konfliktli vaziyatning yuzaga kelish davri.

Ikkinchi davr - bunday vaziyatda subyektlar (yoki hech bo'lmaganda subyektlarning biri) tomonidan o'z manfaatlarini anglab yetish davri.

Uchinchi davr – o‘z manfaatlarini qondirish uchun to‘siqni anglab yetish (kognitiv konfliktida – o‘zga qarashlarni anglash) davri. Bu to‘siqlar uch turda bo‘lishi mumkin. Birinchidan, bu to‘siqlar bo‘lg‘usi konfliktning doimiy ishtirokchilari deb qaralishi mumkin bo‘lgan boshqa shaxslarning pozitsiyalariga bog‘liq emas, balki obyektiv vaziyatdan kelib chiqishi mumkin. Masalan, ximiya zavodi atmosferani ifloslantirib atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha talablarni doimiy ravishda buzib kelgan. Sababi mazkur kimyoviy ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan suvni muhofazalash ishootlarining sanoatda ishlab chiqilmaganligidadir. Zavodning manfaati - bu mazkur vaziyatni o‘zgartirish, oshkora huquqbuzarlikka barham berishdir. Zavod bilan konfliktlashuvchi tarafning o‘zi yo‘q. Bu yerda konfliktli vaziyat bevosita konfliktni yuzaga keltirmaydi. Ikkinchidan, ishtirokchilarning o‘z subyektiv xususiyatlari ularning manfaatlarini qondirish uchun to‘siq bo‘lishi mumkin. Masalan, zavod misolida ko‘radigan bo‘lsak, uning o‘zi tozalash inshootlarini o‘z kuchlari bilan qurishi mumkin edi, biroq kerakli tashabbusni namoyon etmagan. Biroq bunda zavodning tashqi tartibda konfliktga kirishuvini kuzata olmaymiz. Bu yerda konflikt jamoa ichida bo‘lishi mumkin.

Nihoyat, uchinchidan, tashqi to‘siq mavjud va obyektiv belgilangan, masalan, tozalash inshootni qurish uchun qo‘shimcha harajatlarga vazirlikning mansabdor shaxsi tomonidan rozilikning berilmasligi. Bu holatda to‘siq yetarli asosda mavjud va anglashilgan bu esa konfliktni keyingi rivojlanishi uchun muhim shart hisoblanadi.

To‘rtinchi davr- o‘z manfaatlari va boshqa tarafning tegishli qarshiliklarini anglash davri.

Beshinchi davr - taraflarning biri tomonidan o‘z manfaatlarini qo‘llab – quvvatlash maqsadida amalga oshirilgan muayyan harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Biroq, bu murojaatga berilgan rad javobi konfliktni boshlanishi bolib, unda ikkala tarafning pozitsiyalari aniq shakllangan boladi va bir-biriga nisbatan amaliy harakatlar boshlanadi. Bu oltinchi davr edi.

Konflikt rivojlanishining oltita davri ko'rsatilgan izchilikda bir-birining o'rniga kelishi shart emas.

Tabiiyki, bunda konflikt ochiq shaklga ega bo'ladi, bu esa kamida uch holat bilan xarakterlanadi. Birinchidan, ishtirokchilarning har biri uchun konfliktning mavjudligi shak-shubxasizdir;

Ikkinchidan, harakatlar amaliy ahamiyat kasb etadi, ular tashqi shaklga ega bo'ladi, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, nizoli obyektga egallash bo'yicha harakatlar sodir etish, zo'rlik, tahdid va boshqalar.

Uchinchidan, latent bosqichdan o'tgan konflikt haqida konfliktga u yoki bu darajada ta'sir etishga qodir bo'lgan uchinchi shaxslar, begona shaxslar xabardor bo'ladilar. Bunday ta'sir bir xil ahamiyatli bo'lmaydi. U ba'zida konfliktni sustlashtirishi yoki, aksincha, millatlararo konfliktlarda taraflarning yovuz kayfiyatlarini kuchaytirishi mumkin.

Ba'zi konfliktlarda boshqacha darajada konfliktlarga o'tish kuzatiladi, masalan, shaxsiy munosabatlardan guruhlar o'rtasida konfliktga o'tish mumkin.

Konflikt odamlar, guruhlar yoki individlar o'rtasida munosabat bo'lganligi bois u har tadqiqotchi ijtimoiy ahamiyatli xulq-atvor singari kamida to'rtta elementdan iborat bo'ladi, ya'ni: konflikt subyektlari, obyekt, qarama-qarshi jarayonning ichki, ruhiy (subyektiv) va tashqi (obyektiv) tomonlari. Konfliktli xulq-atvor obyektiv jihatdan konflikt ishtirokchilarining qarama-qarshi yo'naltirilgan harakatlaridan iborat. Bu harakatlar orqali konfliktlashuvchi tomonlarning fikriy, ruhiy, irodaviy sohalarda yashirin jarayonlari amalga oshiriladi. Har bir taraf manfaatlarining topishiga yo'naltirilgan o'zaro ta'sirning almashinishi va raqib manfaatlarini cheklash ijtimoiy hodisa sifatida konflikt mohiyatini tashkil etadi.

Konfliktning eng keskin bosqichi bo'lgan kurash odatda hujum va mudofaaning almashinishi hamda muayyan sharoitlarga bog'liq turli harakatlar va vositalarni qo'llashdan iborat. Har qaysi taraf muayyan umumiy strategiyaga rioya etishi mumkin va bunda harakatlarning almashinuvi nazorat qilinishi mumkin. Muzokaralar vaqtida to'xtatilgan kurash, agar ular natija bermasa yoki

erishilgan kelishuv taraflardan biri tomonidan buzilsa, qayta tiklanadi. Halqaro amaliyot muzokaralarni uzish yoki o't ochishni tugatish haqida bitimlarni buzish hollari kurashni yanada avj oldirganligini tasdiqlaydi. Ba'zida muzokaralarning o'zidan rakiblardan biri vaqtincha tinch holatga erishish uchun taktika maqsadlarida foydalanishi mumkin. Bir guruh konfliktolog mutaxassislarining fikricha, "Konflikt dinamikasi o'zaro munosabatlar va vaziyat xususiyatlarini yanada aniq tushunishda, faoliyatni ko'p darajada samarali rejalashtirish va harakatlanishda yordam qiladi. Bunday tushunishga 2 yo'l bilan erishiladi:

1. Turli nuqtai nazarlar asosida bu konfliktlarning batafsil tahlilini amalga oshirish;

2. Bu konfliktlarga aloqador alohida masalalar va muammolarni tadqiq qilish.

Konflikt tahlili deganda nuqtai nazarlarning ko'pligiga asoslanib konfliktning realligini tushunish va tadqiq qilish amaliyjarayoni tushuniladi. Bunday tushunish keyincha strategiya va harakatlarni ishlab chiqish asosiga qo'yiladi". Konflikt yetarli darajada ijobiy yo'nalishda rivojlanishi va mavjud ziddiyatni to'la yoki hech bo'lmaganda vaqtinchalik hal qilish bilan tugashi mumkin. Biroq, ko'pincha unda boshqa xususiyat ham ustun kelishi mumkin: kurash avj oladi va keskinlashadi, konflikt o'sib boradi. Kurash dinamikasining bunday holati odatda konflikt eskalatsiyasi deyiladi.

### **Xulosa**

Konfliktli vaziyatlarda o'tkir mulohazali bo'lish, keng dunyoqarashga ega bo'lishni, o'ta sabrli, madaniyatli va manaviyatli bo'lish talab etadi. Har bir chiqarilgan qaror muammoni katta konfliktlarga olib kelishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun konfliktli vaziyatlarda shoshmashosharlik qilmasdan, chuqur tahlil qilgan holda yondoshish lozim. Zero, konfliktlarni hal qilish, salbiy oqibatlardan saqlab qoladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Quchqarov.J. Konfliktologiya .O'quv qo'llanma. Buxoro-2023y

2. Axmedova.M.T Pedagogik konfliktologiya. Toshkent-2020y
3. Ergeshova.D.K, Najimov.M.K Yuridik konfliktologiya 2005y
4. Lantsov.S Politicheskaya Konfliktologiya
- 5.Internet saytlari